

XALQARO INVESTITSION LOYIHALARNI TATBIQ QILISHDA INVESTITSIYA MUHITI JOZIBADORLIGINING BAHOLANISHI

Raximboyev Doniyor Ne'matjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va investitsion loyihalarni mamlakatimiz iqtisodiyotiga tatbiq qilish sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish va mahalliy sanoat tarmoqlarining rivojlanishiga sabab bo'ladi. Buning uchun mamlakatimiz investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlariga va hududlariga xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish uchun mamlakatdagi investitsion jozibadorlikning xalqaro usullar yordamida baholanishi, xalqaro indeks va reytinglarda yuqori o'rinlarni egallash muhim o'ringa ega hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Investitsion loyihalar, investitsion muhit va uning jozibadorligi, iqtisodiy erkinlik indeksi.

ASSESSMENT OF THE ATTRACTIVENESS OF THE INVESTMENT ENVIRONMENT IN THE IMPLEMENTATION OF INTERNATIONAL INVESTMENT PROJECTS

ABSTRACT

Attracting foreign investments to ensure the stability of the national economy and implementing investment projects in the economy of our country will increase the volume of production of industrial products and lead to the development of local industries. For this purpose, in order to improve the investment environment of our country, to actively attract foreign investments to the sectors and regions of the country's economy, it is important to evaluate the country's investment attractiveness using international methods, to occupy high places in international indexes and ratings.

Keywords: Investment projects, investment environment and its attractiveness, the Index of Economic Freedom

KIRISH

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va barqarorligiga erishish va xalqimizning farovon turmushini ta'minlashda milliy iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarini rivojlantirishda mamlakatning ichki imkoniyatlariga tayanish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Samarali natijalarga erishishda xorij tajribasini o'rganish va uni mamlakat rivoji uchun mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy va boshqa shu kabi omillarga

moslash asosida milliy iqtisodiyot soha va tarmoqlariga tatbiq etish, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga faol ravishda jalb qilish foyda beradi.

Investorlar o‘z kapitallarini turli mamlakatlarning bittasi yoki bir nechtasiga jalb qilishdan oldin o‘sha mamlakatlardagi investitsion jozibadorlikni o‘zaro solishtiradi. So‘ngra qaror qabul qiladi. Investorlar mamlakatning investitsion jozibadorligini tezkorlik bilan baholashmoqchi bo‘lishsa, unda ular xalqaro indeks va reytinglarga e‘tibor qaratishadi. Bu borada O‘zbekistonda qonunchiligimiz asosida ko‘plab islohotlar amalga oshirilyapti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvaridagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli Farmonidagi 3-ustuvor yo‘nalish: milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shirish sur‘atlarini ta‘minlash bo‘yicha milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirish uchun investitsion loyihalarni mamlakatimiz iqtisodiyotiga tatbiq qilish, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish, buning uchun mamlakatimiz investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlariga va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish uchun mamlakatdagi investitsion jozibadorlikning xalqaro usullar baholash, xalqaro indeks va reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallash muhim o‘ringa ega hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mavzuning nazariy qismlarini yoritishda Z. Y. Xudoyberdiyev, D. D. Rustamova, N. M. Majidovlarning¹ “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” o‘quv qo‘llanmasi, Sh. I. Mustafakulovning² “Investitsion muhit jozibadorligi” ilmiy-amaliy qo‘llanmasi o‘rganildi. Shuningdek, “Heritage Foundation” jamg‘armasining 2023-yilgi axborotnomasi³ orqali O‘zbekistondagi investitsion muhitning baholanishi o‘rganildi.

Mamlakatimizning investitsion muhiti va uning jozibadorligini baholashda nufuzli xalqaro iqtisodiy erkinlik indeks ko‘rsatkichlari e‘tiborga olindi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro reyting va indekslarning ta‘siri ushbu tadqiqot ishida yoritildi. Turli adabiyotlarda berilgan ma‘lumotlarni tahlil qilish investitsion jozibadorlikning investitsiyalarni jalb qilishda investitsion muhit va jozibadorlikning tutgan o‘rni haqida kerakli ma‘lumotlar tadqiqotning nazariy ahamiyatini ko‘rsatib bersa, mamlakatimizdagi investitsion muhitning jozibadorligini baholash orqali yuzaga kelgan ijobiy omillarning investorlar uchun manfaatli bo‘lishi tadqiqot ishining

¹ Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish: kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma/ Z. Ya. Xudoyberdiyev, D. D. Rustamova, N. M. Majidov; O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim markazi. — T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. — 192 b.

² Investitsion muhit jozibadorligi: ilmiy-amaliy qo‘llanma/ Sh. I. Mustafakulov — Toshkent: Baktria press, 2017. — 320 b.

³ 2021 Index of Economic Freedom. The Heritage Foundation. Terry Miller, Anthony B. Kim, James M. Roberts

amaliy ahamiyatini ochib beradi. Mavzuni tadqiq qilishda investitsion jozibadorlik va investitsion loyihaga doir tushunchalarni o‘rganishda nazariy ma’lumotlar berilgan o‘quv va ilmiy qo‘llanmalardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsion loyihalar haqida gap ketar ekan. Avvalambor, ushbu ikki so‘z “investitsiya” va “loyiha” so‘zlarining o‘zbek tilidagi izohlariga e’tibor qaratish lozim. Investitsiya so‘zining kelib chiqishi lotincha “Investire” so‘ziga borib taqaladi. Uning ma’nosi “kiymoq”dir. Uning moliyaviy ma’noga ega bo‘lgan iqtisodiy kategoriya aylanishi, bizning taxminimizcha, o‘zbek tilidagi “qoplamoq” so‘zini iqtisodiy ma’noda ham qo‘llana boshlashiga o‘xshaydi. O‘zbek tilida turli buyum va predmetlarni “kiyintirish” o‘rniga “qoplash” so‘zi ishlatiladi. Yevropada esa XVI asrgacha “investire” so‘zi lotin tilidan boshqa tillarga “invest” shaklida o‘tib, buyumlarni qoplash, ularning tiliga mos qilib tushuntirganda esa “kiyintirish” ma’nosida qo‘llandi. Keyinchalik bu so‘z qilingan xarajatlarning o‘rnini to‘ldirish ma’nosida Yevropada “invest” so‘zi orqali xarajatlarni kiyintirish, xarajatlarni qoplash ma’nosida qo‘llana boshlandi. Ma’lumki, xarajatlar amalga oshirilgandan keyin navbatdagi xarajatlarning amalga oshirilishi uchun o‘sha xarajatlar chiqimi evaziga hamyon daromad manbalari orqali kirim bilan to‘ldirilishi kerak. Ayni paytda rus tilida “покрывать” degan so‘z bor. Ushbu so‘z o‘zbek tiliga tarjima qilinsa, “qoplash” degan ma’noni anglatadi. Shuningdek, rus tilida “покрывать” so‘zi ayrim paytlarda “to‘ldirmoq” ma’nosida qo‘llanadi. Shuningdek, rus tilida xarajatlarning o‘rnini to‘ldirish o‘rniga xarajatlarni qoplash jumlasini ishlatilgan matnlar rus tilida ko‘p uchraydi. Bu qo‘llanish esa o‘zbek tiliga rus tilidagi matnlarni tarjima qilish orqali shunday o‘rnashgan. Shu tariqa investitsiya so‘zidan “qoplov” ma’nosi kelib chiqadi. Lekin tariximizda “investitsiya” so‘zini o‘zbek “sarmoya” deb atash o‘zbek adabiy tiliga qabul qilingan. Bugungi o‘zbek tilidagi zamonaviy adabiyotlarda esa “investitsiya” so‘zi “kapital qo‘yilma” deb ham qabul qilingan.

Rus-yevropa tillaridan o‘zbek tiliga o‘zlashgan “kapital” so‘zi qadimda fors-tojik tillaridagi “moya” so‘zi bilan atalgan. Iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish vositalari ustalardan olish uchun kerak bo‘ladigan pul mablag‘lari va qimmatbaho buyumlar esa “sarmoya” ya’ni, “asosiy kapital” deyilgan. Investor esa “sarmoyador” deb atalgan. Bugungi kelib, adabiy tilimizda “investitsiya” va “investor” so‘zlari munosib o‘rin olib ulgurgan. “Loyiha” arabcha so‘z bo‘lib, “ko‘rindi” va “paydo bo‘ldi” degan ma’nolarni anglatadi.

Rivojlangan mamlakatlardagi kompaniyalar o‘z kapital qo‘yilmalarini boshqa mamlakat tomongan yo‘naltirishda o‘ta sinchkov bo‘ladi. Ular mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy vaziyatni uzoq o‘rganadi, tahlil etadi va shundan keyingina bu mamlakatga investitsiyalar kiritish yoki kiritmaslik haqida bir qarorga keladi. Investitsiya muhitining muhim tarkibiy qismi davlatning qonunchilik bazasidir.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi ularning iqtisodiy yuksalishida faol investitsiya siyosati markaziy o‘rinni egallashini tasdiqlaydi. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayoni mamlakatning investitsiya siyosatiga ham bog‘liq bo‘ladi. O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va tartibga solishda O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-sonli Qonuni va boshqa qonun hujjatlari uning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qiladi. Unda investitsiya loyihasi — iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa foyda olish uchun investitsiyalarni amalga oshirishga yoxud jalb etishga qaratilgan, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tadbirlar majmui.

Investitsiya faoliyatini nazorat qilish va qo‘llab-quvvatlash tizimi qonunchilik va me‘yoriy hujjatlardan iborat bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi :

1. Qonunlar;
2. Prezident farmon va qarorlari;
3. Hukumati qarorlari va dasturlari;
4. Ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanishning majmuaviy va davlat dasturlari;
5. Hukumatlararo shartnomalar va bitimlar;
6. Vazirlik va idoralarning nizomlari, yo‘riqnomalari, standartlari, qoidalari.

Yuqoridagi omillar qonunchilik tizimi sifatida investitsiya muhiti va uning jozibadorligiga ta’sir etuvchi omillar qatoriga kiradi.

Investitsiya iqtisodiyot kategoriyasi sifatida o‘rganiladi. Investitsion jozibadorlik esa investitsiya kategoriyasidagi bir tushunchadir. Investitsion jozibadorlik o‘z ko‘lami jihatidan uchga bo‘linadi:

1. Mamlakatning investitsion jozibadorligi;
2. Hududning investitsion jozibadorligi;
3. Korxonaning investitsion jozibadorligi.

Mamlakatning investitsion jozibadorligi — bu undagi soliq imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalar, iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda byurokratik to‘siqlarning mavjud emasligi yoki juda ham kamligi, boj tariflari va bojxona tekshiruvining tezkorligi, qulay infratuzilma va logistika tizimi kabi qulayliklarni investorlarga taqdim eta oladigan shart-sharoitlardir.

Hududning investitsion jozibadorligi — bu mamlakatning investitsion jozibadorligini belgilaydigan shart-sharoitlarga o‘xshash yoki undan kam ko‘prog‘ini mahalliy va xorijiy investorlarga taqdim eta oladigan va o‘sha mamlakatning ma’lum hududlaridagi erkin iqtisodiy zonalarning jozibadorligidir.

Korxonaning investitsion jozibadorligi — bu mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi korxonaga tashqaridan investitsiya olib kiruvchilar yaratib berilgan shart-sharoitlardir.

Investitsiya muhiti — bu mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga ta’sir ko’rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmuasidir. Xorijdan kapital qabul qiluvchi tomonidan investitsiya muhitining modelini ishlab chiqish har tomonlama asoslangan tashqi iqtisodiy aloqalarni aniqlab beruvchi vositadir. Xorijiy investitsiya ishtirokida amalga oshiriladigan loyihalarni ishlab chiqishda investorning maqsad va imkoniyatlari bilan hisoblashishga e’tibor beriladi⁴.

Ko’plab mamlakatlarning investitsiya muhitini baholovchi tashkilotlardan biri Xalqaro Meros jamg’armasi (Heritage Foundation) hisoblanadi. Ushbu jamg’arma tomonidan har yili hisobot nashr qilinadi. Unda mamlakatlar investitsion muhiti 0-100 ballik shkalada baholanadi. Xalqaro Meros jamg’armasi tomonidan Iqtisodiy erkinlik indeksining 2023-yildagi hisobotga ko’ra, O‘zbekiston 184 ta mamlakat ichida 58,3 ball bilan 109-o‘rinni egalladi. Mazkur ko‘rsatkich bilan o‘tgan yilda qayd etilgan 117-o‘ringa (55,7 ball) nisbatan 8 pog‘onaga yuqorilashga erishildi. Mazkur indeks xorijiy investorlar tomonidan doimiy ravishda kuzatib boriladi.

1-jadval.

O‘zbekistonning 2022-2023-yillarda Iqtisodiy erkinlik indeksidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘rni⁵

Yo‘nalishlar	Ko‘rsatkichlar	2023-yildagi holat
Huquq ustuvorligi	Mulkchilik huquqi	30.9
	Sud faoliyati samaradorligi	13.0
	Davlatning yaxlitligi	24.9
Davlat aralashuvi darajasi	Soliq yuki	92.8
	Davlat xarajatlari	74.9
	Fiskal salomatlik	85.3
Tartibga solish samaradorligi	Biznes erkinligi	58.9
	Mehnat bozori erkinligi	48.1
	Monetar erkinlik	63.4

⁴ Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish: kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma/ Z. Ya. Xudoyberdiyev, D. D. Rustamova, N. M. Majidov; O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim markazi. — T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. — 192 b.

⁵ <https://www.heritage.org/index/country/uzbekistan>

Bozorlarning ochiqligi	Savdo erkinligi	76.0
	Investitsiyalar erkinligi	60.0
	Moliyaviy erkinlik	50.0

Respublikamizning indeksdagi o‘rni yuqorilashi tadbirkorlik muhitiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, mamlakatimizga to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarning oqimini oshishiga xizmat qiladi. Iqtisodiy erkinlik indeksida mamlakatimizning yuqori o‘rinda mavjud bo‘lishi mamlakatimizning investitsion jozibadorligiga ijobiy ta’sir o‘tkazadi. Chunki ushbu indeksda biror mamlakatda tadbirkorlik va biznes faoliyatini amalga oshirishda o‘rganiladigan va baholanadigan aniq ko‘rsatkichlarga ega.

Mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali zamonaviy investitsion loyihalarni ishga tushirish mumkin. Bunda investor biznes g‘oyasini loyihaga aylantiradi. Investitsiya loyihalarini ishlab quyidagilarga e’tibor beriladi:

- Investitsion loyihaning maqsadi;
- Investitsion loyihaning amalga oshirilish muddati;
- Investitsiyalash obyekti;
- Investitsion loyihaning iqtisodiy samaradorligi;
- Risk darajasi.

Investitsion loyihaning maqsadini belgilashda uning iqtisodiy yoki ijtimoiy sohalarga yo‘naltirilganligiga e’tibor berish kerak. Investorlar, odatda, iqtisodiy sohalar uchun o‘z kapitalini investitsion loyihaga yo‘naltirishadi. Bundan ular foyda olishni maqsad qilishadi. Davlat esa aholisini ish bilan ta’minlash uchun ular hamkorlik qilishi mumkin. Natijada iqtisodiy-ijtimoiy sohalar uchun investitsion loyihalar tatbiq qilinadi. Investitsiyalash obyektida kapital iqtisodiyotning ma’lum bir soha va tarmog‘iga yo‘naltirilishi belgilanadi. Sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatishga e’tibor beriladi. Investitsion loyihalashtirish yo‘nalishida yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatini tashkil etish muhim o‘ringa ega bo‘ladi.

Har bir loyihaning samarali boshqaruviga quyidagilar e’tibor berish kerak:

- Rejalashtirish;
- Tashkiliy ishlar;
- Muvofiqlashtirish.

Rejalashtirishda investitsion loyiha strategiyasini tuzish va xo‘jalik faoliyati yo‘nalishlarini belgilanadi. Korxonalar faoliyati uchun istiqbolli ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish faoliyati tanlanadi.

Tashkiliy ishlarda investitsion loyiha strategiyasida belgilangan faoliyatni amalga oshirish uchun moliyaviy manbalarni jalb qilish va mavjud bo‘lgan moliyaviy mablag‘larni samarali faoliyat yuritish uchun taqsimlash amalga oshiriladi.

Muvofiqlashtirishda investitsion loyiha strategiyasida belgilangan faoliyat natijalarini monitoring qilish va yangi qaror qabul qilishda bozor holati tadqiq qilinadi.

MUHOKAMA

Bugungi kunda mamlakatimizning investitsion jozibadorligini xalqaro baholashda biznes muhiti uchun yaratilgan shart-sharoitlar, infratuzilma, qonunchilik tizimi xorijiy investorlar tomonidan puxta o‘rganib chiqiladi. Soliq imtiyozlari, bojxona rasmiylashtiruvining tezkorligi, byurokratik to‘siq mavjud emasligi yoki juda ham kamligi, sud-huquq tizimining mustaqilligi va mamlakatdagi ochiqlik, oshkoralik va shaffoflik siyosatining barcha soha va tarmoqlarda aks etishi investitsion muhitni jozibador qilishga xizmat qiladi. Bu borada xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik o‘rnatib mamlakatimizni ko‘plab reytinglarda yuqori o‘rinlarga olib chiqish yurtimizga xorijiy investitsiyalar oqimini jadallik bilan ko‘paytirishga xizmat qiladi.

Xalqaro indeks va reytinglar mamlakatlardagi turli vaziyatlarni o‘z ko‘rsatkichlari asosida baholaydi. O‘zbekistonning investitsion jozibadorligini baholashda, xorijiy investorlar shunday indeks va reytinglarni o‘rganadi. Keyin esa kapitalini joylashtirish yoki joylashtirmaslik haqida bir qarorga keladi. Shuning uchun mamlakatimiz o‘rni juda ko‘plab indeks va reytinglarda aks etishi kerak. Bu orqali investor mamlakatimiz haqida tasavvurlarga ega bo‘ladi. Agar mamlakatimiz juda ko‘plab indeks va reytinglarda yuqori o‘rinlarda bo‘lsa, mamlakatimizdagi investitsion muhit jozibadorligi va bu yurtimizga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmi ortadi. Shu sababli xalqaro reyting va indekslar mamlakatning investitsion jozibadorligini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Investitsion muhit jozibadorligi mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb qilinishi ko‘payishiga olib keladi. Natijada investitsion loyihalar tatbiq qilinadi. Investitsion loyihalarning tatbiq qilinishi korxonalar faoliyatining tashkil etilishiga sabab bo‘ladi. Ushbu korxonalar esa ko‘plab yangi ish o‘rinlarini yaratadi. Mamlakat aholisini ish bilan ta‘minlashda muhim hisoblanadi.

XULOSA

Investitsiyalarni jalb qilishda investitsion jozibadorlik investitsiyaning milliy iqtisodiyot rivojiga ta‘sirini to‘g‘ri baholay olish orqali e‘tiborga ega bo‘ladi. Investitsion jozibadorlikka ega mamlakat investitsiyalar xorijiy zamonaviy infratuzilma, yuqori bilim va malakaga ega kadrlar, soliq imtiyozlari va investitsiyalarini olib chiqib ketish uchun qulay moliyaviy holatlarni kabi shart-sharoitlarni taqdim etadi. Bunday imkoniyatlarni xorijiy investorlar o‘z kapital jalb qilishdan avval, o‘zlari o‘rganayotgan mamlakat misolida tahlil qilishadi. Bu borada xalqaro miqyosda turli indeks va reytinglarning mavjudligi tahlil jarayonlarini

tezlashtirish va osonlashtirishga yordam beradi. Biror mamlakatning ko‘plab xalqaro reyting va indekslarda yuqori o‘rinlarda bo‘lishi undagi siyosiy, iqtisodiy, shuningdek, investitsion muhit jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu orqali shunday yuqori natijalarga ega bo‘lgan mamlakatda xorijiy investitsiyalar oqimining ortishi va bu milliy iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlariga jalb qilinishi mumkin.

Natijada ko‘plab investitsion loyihalar mamlakatimiz iqtisodiyotiga tatbiq qilinadi. Investitsion loyiha istiqboli samarali boshqaruv va strategiyani ishlab chiqishga bog‘liq bo‘ladi. Investitsion loyihada faoliyat yuritayotgan xodimlar jamoasini qo‘llab-quvvatlash va investitsion loyiha istiqboli uchun kerakli yo‘nalishlarni aniqlash investitsion loyihaning uzoq vaqt samarador bo‘lishiga xizmat qiladi. Shuningdek, investitsion loyihaning moliyaviy rejasi qoniqarli bo‘lishi kerak. Investitsion loyihalarning mamlakat iqtisodiyotiga tatbiq qilinishi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida yangi tarmoqlarning ochilishiga sabab bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

O‘zbekiston Respublikasi qonuni

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-sonli Qonuni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvaridagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli Farmoni

Kitoblar

Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish: kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma/ Z. Ya. Xudoyberdiyev, D. D. Rustamova, N. M. Majidov; O‘zR oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim markazi. — T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. — 192 b.

Investitsion muhit jozibadorligi: ilmiy-amaliy qo‘llanma/ Sh. I. Mustafakulov — Toshkent: Baktria press, 2017. — 320 b.

Iqtisodiy erkinlik indeksining 2023-yil uchun axborotnomasi

Veb-saytlar

<https://lex.uz>

<https://www.heritage.org>